

RESPUBLIKAMIZDA PSIXOLOGIK XIZMAT BORASIDAGI TADQIQOTLARNING VUJUDGA KELISHI

Raxmonova Shoxista Safar qizi
Avezov Olmos Ravshanovich
Xamrayeva Momogul Maxmud qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Respublikamizda psixologik xizmatlar borasidagi tadqiqotlarning vujudga kelishi, bu fanning barcha sohalarga kirib borishi, ko'plab psixologiya faniga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maqolalar chop etilgani haqida.*

Kalit so'zlar: *psixologiya, psixika, fan, rivojlanish, o'quv- qo'llanmalar.*

Annotation: *This article is about the emergence of research on psychological services in our republic, the penetration of this science into all fields, the publication of many textbooks, training manuals, and articles on the science of psychology.*

Key words: *psychology, psyche, science, development, textbooks.*

Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O'zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o'rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko'lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, O'zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo'lmaydi.

O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bo'lgan ayrim obyektiv va subyektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog'liq izlanishlar va tadqiqotlar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M. G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo'lib keldi. Binobarin, 70-80-yillarda Toshkent Davlat Universiteti psixologiya kafedrasida olimlari tomonidan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning hayotga tatbiqini amalga oshirish maqsadida talaygina mehnat jamoalarida psixologik xizmat tizimi joriy qilindi va Respublikamizda ilk bor qator mehnat va ishlab chiqarish jamoalarida inson va mehnat faoliyati, shaxs va shaxslararo munosabatlar, ishchi va rahbar, ruhiyat va rentabellik, rahbar va jamoa psixologiyasi bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlar olib borildi.

Shuningdek, 60-70 yillarda O'zbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasuleva, M.Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini o'rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, 1966 yilda Chirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid, 1973 yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin.

Binobarin, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo'lishini ta'minlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo'g'inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to'la-to'kis yuzaga chiqarish masalasi O'zbekiston psixologlari oldiga psixologik xizmat bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas'uliyatini yukladi:

- aholi o'rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish;

- har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy- iqtisodiy va etnopsixologik tamoyillariga moslashtirilgan eng ilg'or testlar, metodikalar asosida o'rganish, tahlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish;

- xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo'naltirishda ma'muriy tashkilotlarga ko'maklashish, shuningdek barcha bo'limdagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savodxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli "ijtimoiy psixologiya" kurslarini tashkil etish;

- fuqarolarning kasbiy yo'nalishlarini aniqlash va mehnat birjalari faoliyatini rejalashtirishda faol yordam ko'rsatish;

- qator yo'nalishlarda aholiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash:

a) individual psixologik xizmat;

b) ichiqarish va mehnat jamoalariga psixologik xizmat;

v) oilaviy hayot tizimida psixologik xizmat;

g) xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat;

d) ichki ishlar tizimida psixologik xizmat;

e) sport va sog'lomlashtirish tizimlarida psixologik xizmat;

j) tibbiyot tizimida psixologik xizmat;

z) transport tizimida psixologik xizmat.

Shuningdek, mazkur sohalarda psixologik xizmatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun "sosiolog-psixologlar ", " amaliyotchi - psixologlar " tayyorlash mexanizmini ishlab chiqish bugungi kunda eng dolzarb muammo ekanligi yanada sezilmoqda. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish borasida olimlar tomonidan talaygina nazariy-ilmiiy va amaliy uslubiy ishlar amalga oshirildi.

1989 yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli TDPUda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, E.N.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safayev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilova va boshqalar hissa qo'shganlar.

1998 yilda Sh.R.Baratov “Ta’lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari” mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

Kollej, liseydagi psixologlar direktorga va boshqarmaga bo’ysunadi. Kollej, lisey direktorlariga psixologik xizmat haqidagi Nizomda ko’rsatilgan vazifalar bilan bog’liq bo’lmagan vazifalarni kollej psixologiga topshiriq tariqasida berishlariga ruxsat etilmaydi. Psixologik xizmatning eng yuqori darajasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi qoshidagi psixologik xizmatni tashkil etish va boshqarishning muvofiqlashtirilgan Respublikasi tashxis markazi tariqasida xizmat qiladi. Bu markazning psixologlar, pedagoglar va tibbiy xodimlardan iborat 3 - 5 kishilik doimiy ishlaydigan xodimlari bo’lishlari zarur.

Psixologik xizmatning tuzilishini quyidagi sxema tarzida tavsiya etish mumkin.

Viloyat o’rta maxsus ta’lim boshqarmalari, Qoraqalpog’iston o’rta maxsus ta’lim Vazirligi va Toshkent shahar o’rta maxsus ta’lim boshqarmasi qoshidagi tuman tashxis markazlari o’z hududlaridagi psixologik xizmatni tashkil etish va ularni nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Bu bo’limlar 2 - 3 kishilik xizmat xodimlariga ega bo’lishi kerak.

Masala mohiyatiga, aniq va konkret yondashadigan bo’lsak psixologik xizmatning aynan ilmiy tashkiliy mazmuni va psixologik xizmat tatbiqining amaliyotdagi faoliyat yo’nalishlari haqida fikr-mulohazalarni O’zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatini tahlil qilish nuqtai nazaridan talqin qilishga to’g’ri keladi.

Bizningcha, psixologik xizmatning ilmiy - tashkiliy mazmunini quyidagi 2 yo’nalish asosida tasavvur qilish mumkin:

1. Psixologik xizmatning ilmiy- amaliy asoslari.
2. Psixologik xizmatning tashkiliy faoliyat asoslari.

Psixologik xizmatning ilmiy-amaliy asoslariga ilg’or psixologiya fanidagi nazariy-ilmiy, metodologik yo’llanmalar, tamoyillar, mezonlar va xulosalarning amaliyotdagi tatbiqi kiradi. Bu tatbiq esa ilmiy-amaliy ish jarayonining psixologik oqartuv, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahatlar kabi yo’nalishlarida o’z ifodasini topadi. Psixologik xizmatning tashkiliy faoliyat asoslari, deganda, qaysi sohada psixologik xizmatning tashkil etilishiga qarab o’sha soha yo’nalishidagi yuqori tashkilot (Vazirlik) qarori va shu qarorga muvofiq tashkilot, korxonalar muassasalarda psixologik xizmat tizimining xududiy psixologik xizmat markazlari faoliyati yoki bevosita amaliyotchi-psixologlar faoliyati orkali tatbiq etilishi tushuniladi.

Bu o’rinda shuni ta’kidlash joizki, xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat tatbiqining bugungi holatini 2 bosqich asosida talqin qilish mumkin:

1-bosqich - maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi, albatta, mazkur yo’nalish bo’yicha allaqachon, aniqrog’i 80 yillardayoq Toshkent shahrining talaygina maktablarida ish boshlangan va o’sha paytlarning o’zidayoq psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo’lgan edi. Lekin, psixologik xizmatning keng targ’ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to’sqinlik qilib kelar edi. Shukurlar bo’lsinki, 90 yillarga kelib mustaqillik, erk, o’zlikni anglash hislari hukmron bo’lgan O’zbekiston sharoitida inson va jamiyat

kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o'ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash, bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi. Chunki, maktabdagi ijtimoiy psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O'zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmas edi. Shunga muvofiq, dastavval Toshkentda, so'ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta'lim maktablari uchun "amaliyotchi-psixologlar" mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ'ibotchisi va tadbqiqotchisi sifatida samarali ish olib bormoqdalar. Qolaversa, umumta'lim maktablarida psixologik xizmatni tashkil etishda va takomillashtirish borasida 1987 yil Buxoroda, 1990 yil Toshkentda, 1993, 1994, 1995 yillarda Buxoroda tashkil etilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida qilingan barcha ma'ruzalar, ko'tarilgan muammolar O'zbekistondagi psixologik xizmat tatbiqining tub mohiyatini tushunish, tahlil qilish va bu borada olib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonda psixologik xizmatning bugungi ilmiy-tashkiliy holatini tahlil qilinar ekan, albatta, Respublika miqyosida psixologik xizmat ko'lamini kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan amaliyotchi-psixologlar tayyorlash uslubi, prinsiplari va o'ziga xos xarakterli xususiyatlari haqida to'xtalish joiz.

Ma'lumki, psixologik xizmat barcha mamlakatlarda, hatto bir -biriga o'xshamagan turli ilmiy-tashkiliy shakllarda amalga oshirilib kelmoqda. Bu albatta, tabiiy hol, chunki, har bir davlatning faqat o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga mos tadbirlargina shu davlatda qo'llaniladi va kerak bo'lsa rivojlantiriladi. Shunga muvofiq, O'zbekistonda psixologik xizmatni rivojlantirish uchun malakali va yetuk mutaxassislar kamligini hisobga olib, dastlabki qadam maktabning eng ilg'or va iqtidorli o'qituvchilari orasidan amaliyotchi psixologlar tayyorlash tashabbusi bilan boshlandi. Bu borada o'rinli bir savol tug'iladi: Nima uchun "amaliyotchi-psixologlar" kursiga aynan tajribali o'qituvchilargina jalb qilindi? Darhaqiqat, kursga faqat yuqori malakali pedagoglarning jalb qilinishi bejiz emas. Chunki, maktabda psixolog bo'lish uchun, avvalo o'quvchi shaxsini, o'quv jarayonini ta'lim-tarbiya mezonlarini chuqur va to'g'ri tahlil qila olish malakasi va tajribasi bo'lishi shart. Shuningdek, masalaning ijtimoiy tashkiliy tomonlari ham mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E.,Psixologiya fani 21 asrda, T., 2002.
2. G'oziyev E.,Psixologiya .,T., 2003.
3. Qodirov B.,Layoqat psixologiyasi,T.,1989.
- 4.Shoumarov G',Oila psixologiyasi, T.,2000.
- 5.Karimova V.,Ijtimoiy psixologiya, T.,1994.
- 6.Avezov O.R, Ekstrimal vaziyatlardapsixologik xizmat Darslik ,”Kamolot” nashriyoti,2023

7. Avezov O.R Mental Status and Behavioral Reastions in Emergensy and Extreme Emergensies American Journal OF SOISSAL AND HUMANITARIAN RESEARSH .ISSN:2690-9626 Vol.3,No 1,2022.

8. Avezov O.R.Ta'lim tarbiya jaroyonida agressiv xulqli bolalar ota-onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari."O'zbekisyonda fuqorolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari"//Respublika ilmiy –amaliy anjumani materiallari// Farg'ona,2017y.248-251.

9. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish .Darslik ,"Durdona nashriyoti,2021 yil. 243-bet.

10. Avezov O.R.Deviant xulq- atvor psixologiyasi.Darslik, "Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti,2019 yil.495-bet.

11. Avezov O.R. L.Ya.Olimov,A.M.Nazarov. Shaxs psixologiyasi.Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro.2019 yil.340 bet.